

**ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASINING TIL
XUSUSIYATLARI**

Qurvonaliyeva Shaxzoda

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan

filiali UZB-N 23UB guruh talabasi

Annatatsiya: Maqolada Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi til xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan iboralar, maqollar, tarixiy so'zlar, dialektizimlar va antroponimlar alohida o'rganilib ularning badiiy vazifalari izohlanadi. Hikoyaning til vositalari realistik ruhni kuchaytirish, milliy kolorit yaratish va qahramonlarning xarakterini ochib berish ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar; Abdulla Qahhor, “Anor”, ibora, maqol, tarixiy so'zlar, dialektizim, antroponim, til xususiyatlari.

Annotation. This article analyzes the linguistic features of Abdulla Qahhor's short story “Anor”. The study focuses on the use of idioms, proverbs, historical words, dialectisms and anthroponyms, examining their literary functions. It is explained how the linguistic devices of the story strengthen realism, create national color, and reveal the character's traits.

Keywords; Abdullo Qahhor, “Anor”, idiom, proverb, historical word, dialectism, anthroponym, linguistic features.

Аннотация: В статье анализируются языковые особенности рассказа Абдуллы Каххара “Анор”. Особое внимание уделяется использованию фразеологизмов, пословиц, историзмов, диалектизмов и антропонимов, а также раскрываются их художественные функции. Показано, как языковые средства рассказа усиливают реалистичность, создают национальный колорит и помогают раскрыть характеры героев.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, “Анор”, фразеологизм, пословица, историзм, диалектизм, антропоним, языковые особенности.

Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib hayotdagi alohida narsalarni bu-zadi ,saralaydi ,to'qiydi hamda yangidan ta'sirli va jonli ,tabiiy va go'zal ,tipik va yaxlit narsa yaratadi .Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham ,qahra-mon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham,yaxlit sujetni yuzaga keltirishda ham kuzatiladi.Abdulla Qahhor ijodida ham bu jarayon o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi."Badiiy adabiyotning bosh xususiyati – uning ijtimoiy ong shakillaridan biri ekanligidir"[1]

O'zbek adbiyoti tarixida Abdulla Qahhorning ijodi alohida o'rin egallaydi .U o'z asarlarida hayotiylik va xalqona ruhni ustuvor qo'ygan yozuvchi sifatida o'quvchilar yuragidan joy olgan. Qahhor hikoyalarida til vositalari orqali oddiy insonlarning ruhiyati,orzu-intilishlari va ijtimoiy muammolari jonli tasvirlanadi .O'quvchi Abdulla Qahhorning hikoyalarini hayolida jonlantirib sahnalashtiradi."Anor" hikoyasi ham badiiy mahorat na'munasi bo'lib,unda xalqona iboralar ,maqollar,tarixiy so'zlar,dialektizimlar va antroponimlar ko'p uchraydi .[2] Hikoyaning til vositalari qahramon obrozlarini ochishda zamon va muhitni ifodalashda jonli dialog va xalqona nutq bog'lanishida qanday xizmat qilishini ko'rib chiqamiz.

1.Iboralar

Hikoyada xalq og'zaki nutqiga xos ko'plab iboralar mavjud.Masalan:"Shashti qaytmoq ...","o'pkasi to'ldi ","tili qotib va og'zida aylanmay qoldi","Jigarlaring ezilib ketsin","yuragi qon bo'lmoq","uy qilmoq","tepa sochi tikka bo'lmoq" kabi iboralar qahramonning his-tuyg'ularini ifodalashda qo'llangan.Yozuvchining asosiy maqsadi bu kabi iboralardan foydalanib ,o'quvchiga oddiy so'zlardan ko'ra kuchliroq emotsional ta'sir ko'rsatish."Uy qilmoq" iborasini oladigan bo'lsak ,bunda uy quradi,yangi hovliga ko'chib o'tadi degan ma'noda emas.ularning turmush qurgani,bir oila bo'lgani nazarda tutilmoqda.Bejizga aytilmagan"O'zbekning o'zi qiziq.O'zidan ham so'zi qiziq "deb.Bu so'zga isbot tariqasida biz "Anor" hikoyasini olishimiz mumkin.Abdulla Qahhor qahramonning ruhiy holatini ifodalashda bo'yoqlar

yordamida tasvirlashi va to'g'ri foydalanishi katta mahorat talab qiladi va o'quvchini o'ziga yanada kuchliroq tortadi."yuzning qizarishi"bu holatda Turobjonning anor emas asal olib kelganidagi holati qisqa so'zlar bilan ifodalangan.Yozuvchi shu o'rinda"uyaldi"yoki"hiyolat"bo'ldi kabi holatlarni aks ettirgan .

2.Maqollar

Abdulla Qahhor xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanadi.Yozuvchi ko'plab hikoyalariga epigrof tarzida maqol yoki ibratli so'zlarni qo'laydi.Bunda Turobjon xotiniga aytgan so'zi"ro'zg'or achiq bo'lsa ,qiyinroq bo'lar".Har narsadan noliyverish,boriga qanoat qilmaslik insonni tubanlikka boshlaydi.Yozuvchi bu maqol orqali o'quvchiga oilada qiyinchiliklar ham bo'lib turishini,asosiysi bu to'siqlarni er va xotin birga yengishi kerkaligini nazarda tutgan.Maqollor qahramonlarning hayotiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lib,hikoyaga xalqona ruh bag'ishlaydi.

3.Tarixiy so'zlar

Hikoyada o'z davriga xos tarixiy leksik birliklar ham uchraydi.Masalan:"Qadoq","itifoqqa","tok cha","darcha","to'ralar","uch miri","samovar","obrez","kelasop","nainki"."Qadoq" o'zbek xalqining qadimiy o'lchov birligi bo'lib hozirgi kunda bu so'zning zamonaviy muqobili bor,ya'ni "kilogram"."Otliq"so'ziga to'xtaladigan bo'lsak ,o'sha davrning o'ziga to'q insonlariga tegishtirib aytilgan .Hozirgi kunda bu("otliqqa yo'q bizga bo'larmidi ")iborasining muqobillari bir nechta.Izoh uchun:"tagingda bir uloving bo'lsa","ularning qo'li uzun"va shu kabilar.Biz bir hikoyani o'qish yoki tahlil qilish jarayonida ,unda keltirilgan so'zlarga ,voqelik izchilliklariga qarab qaysi davrga tegishli ekanligini bilib olsak bo'ladi.Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasi XX asrning 30-yillariga tegishli ekanligi yaqol sezilib turibdi.

4.Dialektizim-shevaga oid so'zlar.

Hikoyada Turobjonning xotini eriga "akajon"deb murojat qilishi ,bu ayrim hududlar so'zlashuviga oid .O'zbek ayollari turmush o'rtog'ini

(palonchi) aka, begim, dadasi, ho'jayin deb atashi ularga bo'lgan hurmatini yanada oshiradi. Yozuvchi bu jumla orqali ham ayollarimizga hos hislatni ochib beryabdi, ya'ni ko'cha –kuyda, yaqinlari va farzandlari yonida ularning tarbiyasiga ta'sir qilmagan holda, hamma tushunadigan tarzda erkalaydi. "Nainki "nimaiki" so'zining og'zaki nutqda qisqartirilgan shakli. Abdulla Qahhor har bir hikoyasining qahramonlarini til bo'yoqdorligiga e'tibor bergan. Hikoyalarini o'qib turib qaysi hududga tegishli ekanligini ziyrak o'quvchi tezda farqlaydi.

5. Antraponimlar

Hikoyada keltirilgan ismlarga e'tibor qaratadigan bo'sak, nima uchun bosh qahramonga yozuvchi "Turobjon" ismini tanlagan? Keling bunga ham to'xtalib o'tamiz. Yozuvchi hikoya orqali o'sha zamonning og'irligi, inson mexnati arzonligi va boylar bilan kambag'allar o'rtasidagi farqni Turobjon obrozi orqali ochib bergan. Bizga ma'lum bo'lishicha Turobjon tinim bilmas inson. U erta turadi, suv tashib, o'tin yorib bir oyda o'n sakkiz tanga pul topadi. Xotinning so'zlariga jahli chiqib hattoki o'g'irlikka ham qo'l uradi. Yoki qo'shnisi Mullajon qozi to'yida har biri uch miridan bo'lgan mushak otsa, uning qo'shnisi esa bir tangaga anor sotib ololmaydi. Har narsaga shay oilasi uchun jinoyatga ham qo'l urishdan qaytmaydi. "Isim taqdirini o'zgartiradi "so'zi bejizga aytilmas ekan. Turobjon ismi o'zbekcha –forscha bo'lib "turmoq, yashab ketish" ma'nolarida qo'llanadi. [3] Hayotda ham Turobjon o'zini qo'lga olishi va qiyinchiliklardan o'tishi kerakligi, ismi bilan bog'langanligi yaqqol sezilib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining ilmiy-metodik elektron jurnali. 2025-yil 8-soni.

2. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jild. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti" Toshkent 1987

3. Ismlar.com

<https://ismlar.com>